

*Yunusaliyeva Guljahon Araboy qizi*

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti „Boshlang`ich ta`lim nazariyasi va metodikasi“ mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*

## **BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARINI TARBIYALASHDA XALQ OG`ZAKI IJODINING TARBIYAVIY AHAMIYATI**

**Anotatsiya:** Ushbu maqola boshlang`ich sinf o`quvchilarini tarbiyalashda xalq og`izaki ijodining o`rni. Jamiyatda yuksak ma`naviy fazilatlarni kamol toptirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, umrboqiy an`analarimizga qadriyatlarimizga hurmat, vatanga muhabbat, istiqloq g`oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashni o`rganadi.

**Kalit so`zlar:** O`quvchilar, xalq og`zaki ijodi, xalq odobnomasi, xalq pedagogikasi, madaniy qadriyatlar, madaniy me`ros, ananalar, san`at, adabiyot, doston, qo`shiq, topishmoq, ertak...

**Аннотация:** В данной статье речь идет о роли народного творчества в воспитании младших школьников. Он учится воспитывать в обществе высокие нравственные качества, воспитывать молодежь в духе уважения к нашему богатому культурному наследию, жизненным традициям, нашим ценностям, любви к Родине, верности идеалам независимости.

**Ключевые слова:** Учащиеся, фольклор, народный этикет, народная педагогика, культурные ценности, культурное наследие, традиции, искусство, литература, эпос, песня, загадка, сказка...

**Abstract:** This article is about the role of folk art in the education of primary school students. He learns to cultivate high moral qualities in society, to educate young people in the spirit of respect for our rich cultural heritage, lifelong traditions, our values, love for the motherland, and loyalty to the ideals of independence.

**Key words:** Pupils, folklore, folk etiquette, folk pedagogy, cultural values, cultural heritage, traditions, art, literature, epic, song, riddle, fairy tale...

Hozirgi paytda fan va madaniyatning eng so`nggi yutuqlari asosida kelajagimiz bo`lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali usullarini ishlash va ularni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Jamiyatda yuksak ma`naviy fazilatlarni kamol toptirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, umrboqiy an`analarimizga qadriyatlarimizga hurmat, vatanga muhabbat, istiqloq g`oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qobiliyatlarini har tomonlama yuzaga chiqarishlariga imkoniyatlar yaratish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha isloxlarning bosh omilidir.

Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab hayot jarayonida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab-mahalla, do`stlari, ijtimoiy muhit, ommaviy axborot vositalari, san`at, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita ta`sir qiladi. Umum ta`lim maktab o`quvchilarni ma`naviy-axloqiy, umrboqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda dars bilan bir qatorda sinfdan va maktabdan tashqari o`tkazilayotgan tadbirlar ham katta ahamiyatga ega.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning samaradorligini oshirish, avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo`nalishlarini topib, joriy etishdir. Zero, bunda o`quvchilarning qiziqishlari, istaklari, hoxishlari va extiyohlari hisobga olinadi. U o`quvchilarning ijodiy qobiliyatlari va tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Sinfdan va maktabdan tashqari o`tkaziladigan tadbirlarning o`ziga xosligi shundaki, unda dasturning rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar, hayot bilan bog`liqligi, ijtimoiy-siyosiy hayotda, dunyoda bo`layotgan o`zgarishlarning nechog`li ahamiyatga molik ekanligi, inson hayotidagi ahamiyati, hayotdagi pok,

vijdonan, insoniylik ko'zi bilan qarashga o'rgatish, xulosa chiqarish, o'smir yigit-qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun imkoniyatlar yaratadi.

Xalqimiz o'z tarixiy-ijtimoiy taraqqiyoti mobaynida boy og'zaki ijodiy meros yaratgan. Xalq og'zaki ijodida ta'lim-tarbiyaga oid ilg'or pedagogik fikrlar ilgari surilgan. Xalq og'zaki ijodiyoti asrlar bo'yi mehnat jarayonida insonning orzusi negizida shakllanib borgan barkamol insonga qaratilgan xalq og'zaki va yozma yodgorliklarida, ya'ni ertak, doston, qo'shiq, topishmoq, tez aytish, masal, matal, maqol, rivoyat va hikoyatlarida o'z aksini topgan. Xalq og'zaki ijodiyoti asta-sekin keng tus olib, rivojlanib borgan. Shu zaylda insonlarda pedagogik madaniyat va merosga ixlos, intilish vujudga kelgan hamda unga amal qilina boshlangan.

O'zbek xalq pedagogikasi» qamrovi nihoyatda keng, bag'oyat serqirra va serjilo tushuncha bo'lib, u shu xalq paydo bo'lgan butun davrni o'z ichiga oladi. Xalq donishmandligi va odobnomasining bu nodir sohasi ijtimoiy va maishiy-axloqiy hayotning barcha tomonlarini, xalq og'zaki ijodi, qadrshunosligi, udumshunosligi va marosimshunosligining yetakchi yo'nalishlarini, diniy-axloqiy ta'limotni qamrab olishi bilan xarakterlanadi. U xalqimizning asrlar davomida to'plangan boy tajribalarini, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, falsafiy, ma'rifiy, estetik, ma'naviy hamda jismoniy yetuklik borasidagi qarashlarini, tajriba-xulosalarini lo'nda, ammo bag'oyat teran, donishmandnamo tarzda ifodalaydi. Ilk bor yaratilayotgan «O'zbek xalq pedagogikasi» da dono xalqimizning ta'lim tarbiya, axloq, odob, inson qadriyatlarini va uning ma'naviy ustuvorligi, iymon-e'tiqodi butunligi sohasidagi dunyoqarashi, amaliy faoliyati, usul-metodlari, an'analari tabarruk islomning odob-axloq, ilmu fan haqidagi ta'limotiga bog'liq holda, muqaddas Qur'oni karim va payg'ambarimiz Muhammad Rasulullohning muborak hadisi shariflariga suyangan holda yoritish mo'ljallangan.<sup>1</sup> Tadqiqotda Oллоhning ilohiy mo'jizasi —hayot sarvari Insonning ona qornida paydo bo'lishidan tortib, to tug'ilganiga qadar, ilk tarbiyasidan tortib, to voyaga yetguncha hamda oila qurgunga qadar, yoshini yashab to omonatni topshirgungacha bo'lgan axloqiy, aqliy, estetik mehnat, ekologik tarbiyasi, shuningdek jismoniy chiniqish bilan bog'liq o'yinlar, xalq pedagogik an'analarning hozirgi zamon yosh avlod ta'lim-tarbiyasida tutgan o'rni hamda ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Shu bilan birga o'zbek an'anaviy, ommaviy bayram-sayllari, rasm-rusmlari, odatlari va udumlarida aks etgan axloqiy qarashlar, ularning o'ziga xos odobnomasi, ibratnomasi kabi bag'oyat dolzarb mavzularni yoritishga ham harakat qilinadi.

Demak, xalq pedagogikasi hozirgacha yashovchanligi asosan og'zaki tarzda bo'lib, har bir avlod unga o'z tajribasini, qarashlarini, fazilatlarini qo'shgan holda bizgacha yetib kelgan. Bugungi kunda esa shu uzoq asrlar davomida ta'lim-tarbiya qo'llanmasi, vositasi bo'lib kelgan xalqning pedagogik qarashlarini to'plash, o'rganish va chop etish vazifasi turibdiki, bu vazifani bajarish yo'qolish arafasiga kelib qolgan milliy qadriyatlarimiz, axloqimiz, urf-odat, rasm-rusumlarimizni, udumlarimizni, an'analарimizni asrab qolish va tiklash uchun nihoyatda zarurdir.

O'zbek xalq pedagogikasi an'analari o'quv qo'llanmasi uzoq yillik ilmiy, pedagogik izlanishlar, amaliy faoliyatlar natijalaridan kelib chiqqan holda jonli, ilmiy-ommaviy tilda yozilgan. Xalqning oilaviy-maishiy hayoti, ta'lim-tarbiyaviy axloq-odobga oid hayotiy yo'l-yo'riqlari, usullari, ibratli tajribalariga oid turfa misollar — dostonlar, ertaklar, mehnat-mavsum marosim qo'shiqlari, asotirlar, naqlar, rivoyatlar, afsonalar, maqollar, matallar, hikmatlar, qayroqi so'zlar, aforizmlar, topishmoqlar, tez aytishlar, bolalar o'yinlari, allalar, to'y va aza qo'shiqlari, aytimlari, olqish va qarg'ishlar, suyush-erkalash qo'shiqlari, erkalamalar, ovutmachoqlar, qiziqmachoqlar, yalinchoqlar, hukmlagichlar, chorlamalar, cheklashmoqchalar, guldur-guplar, sanamalar, o'yin-kulgular bilan bog'liq lapar, aytishuv, o'lan, termalar, bolalar tarqalish, chorlash qo'shiqlari ramazon, boychechak, yomg'ir, quyosh, yulduz suv aytimlari, chandishlar, tegishma-choqlar, masxaralamalar, «Navro'z», «Mexrjon», bahor, kuz, qish, yoz aytim-qo'shiq ashulalari, dehqonchilik, chorvadorlik,

<sup>1</sup> Xoshimov K., Safo Ochil. «O'zbek pedagogikasi antologiyasi». «O'qituvchi» nashriyoti. T. 2000 yil.

kasb-hunarmandchilik bilan bog'liq nasriy va nazmiy asarlar; inson, tabiat va hayvonlar dunyosiga oid namunalar hamda mifologik tasavvurlar aks etgan asarlar bilan boyitilgan. Kezi kelganda shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, xalq pedagogikasi bamisoli jonli organizm, qaynar buloq, o'lmas, o'chmas, doimo boyib, ko'payib boruvchi ilohiy, mo'jizaviy tarbiya soxasidir.

Hozirgi zamon ta'lim-tarbiyasi, istiqloq mafkurasi ana shu merosdan oziqlansa, uning eng yaxshi sahifalarini, qoidalarini qabul qilsa, o'z oldiga qo'ygan maqsad-vazifalarini sharaf bilan bajarishi mumkin. Chunki, xalq odobnomasi va ibratnomasining bu, ikki teran, boy, serma'no, mazmunli soxasi — xalq og'zaki ijodi va xalq pedagogikasi an'analari — insonni har tomonlama tarbiyalash, kamolga yetkazish, ma'naviyatlarimizning ustuvor Iymon-e'tiqodlarimizning butun bo'lishligini, qadri qadriyatlarimizning qadrlanishi garovidir.

Ma'lumki, millat o'z tarixini unutsa, uning milliy pedagogikasi ham o'z zaminidan ajralib qolishi tabiiy hol. Ilg'or demokratiya, insonparvarlik asosida shakllangan xalq pedagogikasidan ajrab qolish umumta'lim maktablari, o'rta va oliy pedagogika o'quv yurtlari, oila va keng jamoatchilikning tarbiya borasidagi faoliyatiga jiddiy ziyon yetkazdi. Xalq Ona suti bilan, kirib, uning qon-qoniga singib ketgan milliy odob-axloq an'alaridan mahrum bo'ldi. Natijada, yoshlar o'rtasida turli ko'rinishdagi axloqsizlik, jinoyat, ma'naviy qashshoqliklar tobora kuchayib bordi.<sup>2</sup>

Xalq pedagogikasi qamrovi keng bo'lib, uni muayyan xalq tarixi, falsafasi, psixologiyasi, etnografiyasi hamda xalq tabobatidan tashqarida tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuningdek, tarbiyani amalga oshirishda qo'llanib kelingan usul, vosita, ko'nikma va malakalar birligini ham o'z ichiga oladi. Ma'lum ma'noda o'zbek xalq og'zaki ijodi to'g'ridan-to'g'ri bola tarbiyasiga ta'sir etish vositasi bo'lib xizmat qilgan va xizmat qilib kelmoqda. Chunonchi, tez aytish — bolalar nutqini o'stirishga, topishmoq — bolalarning topqirligini tarbiyalashga, maqol — bolalarning odob-axloq tarbiyasiga, qo'shiq — bolalarning nafas tarbiyasiga, doston va ertaklar — bolaning turli, tomonlama tarbiyasiga ijobiy ta'sir kilib kelgan.

Tez aytish

«G'ani g'nldirakni g'izillatib g'ildiratdi».

Olim Olimadan olma oldimi,

Olima Olimdan olma oldimi?»

«Eshik oldida buloq, buloqdan suv ichar uloq, uloq uzun quloq.

To'p-to'p ko'k koptok, har to'p ko'k koptokda bittadan katta koptok», kabi tez aytishlar orqali gapdagi so'zlar ma'nosini tez anglab olish, urg'ularni o'z o'rnida ishlata bilish, bolalarda nutqni to'g'ri va burro talaffuz qila olish malakalarini hosil qilishda katta rol o'ynadi.

Topishmoq (jumboq) qadimdan davom etib kelayotgan va xalqimiz orasida, xususan yoshlar o'rtasida eng ko'p tarqalgan janrlardan biridir.

Tog'dan kelar lo'k-lo'k,

Bo'yni uzun, ko'zi ko'k.

Hay-hay uning yurishi.

G'amza bilan turishi.

Uzun-uzun minora,

<sup>2</sup> O'quv qo'llanma "Tarbiyaviy ish metodikasi" T.: «O'qituvchi» 1991.

Har shoxida bir lola.  
Lolasidan olibman,  
Balosiga qolibman.  
Yo'rgaklangan malikam, sochlari bir tutam.  
Ikki ajib qulog'i bor:  
Biri tinglar, biri so'zlar. Bir otasi, bir onasi, Necha yuz ming bolasi.

Bolalarning topqirligini tarbiyalash va zehnini o'tkirlashtirishda, fikrlash qobiliyatlarini o'stirishda topishmoqlar muhim ahamiyat kasb etadi. O'z xususiyatiga ko'ra topishmoq ikki va undan ortiq bolalar o'rtasida mustaqil fikrlash yo'li bilan, qizg'in savol-javob usulida, tortishuvlar, bahslar orqali olib boriladi.

Topishmoq bolalarni tobora ko'proq narsa va buyumlarni, tabiat va uning hodisalarini idrok qilishga yordam beradi.

Maqollar odamlarning hayoti va turmushi jarayonida to'plagan tajribalari, dunyoqarashi, o'zi yashab turgan ijtimoiy hayotga bo'lgan munosabati, o'tmish hayoti va uning ibratli saboqlari, shaxsning ruhiy holati, umid va orzularini ifodalaydi. Shuning uchun ham ular bola tarbiyasida, xususan axloq va odobiga ijobiy ta'sir etishda samarali ta'sir ko'rsatishga qodir. Xalq og'zaki ijodi namunalaridan o'rinli va me'yorida foydalanib yondoshish oldimizga qo'yilgan maqsadni amalga oshirishga yaqindan yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ismoilov Z. "Tarbiyaviy ish metodikasi" Toshkent.: "Istiqlol" 2003
2. Mirtursunov Z. «Xalq pedagogikasi». T.1994 yil.
3. Mo'yidinov va boshqalar. Ma'naviy meros va yoshlar tarbiyasi. – T.: Fan nashriyoti, 2006.
4. Raxmatova X.A. Pedagogik diagnostika va korreksiya darslik. Toshkent, 2022, 229 b.
5. **Qambarov M.M. Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik kompetentlik komponentlarini shakllantirish//NamDU Ilmiy axborotnomasi -Namangan, 2021-y. №11.B.681-686.6.**
6. No'monov T. va boshqalar. Maqol va hikmatlar. "Ona tilimiz duru javohiridir". – Namangan, 2013.
7. Xoshimov K., Safo Ochil. «O'zbek pedagogikasi antologiyasi». «O'qituvchi» nashriyoti. T. 2000 yil.